

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TARBIYAVIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

Karimova Muqaddas

*Xo'jayli tumani 3-sonli maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, o'quvchilarda kommunikativ, ijtimoiy, bilish va shaxsiy rivojlanishga oid kompetensiyalarni shakllantirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, tarbiyaviy kompetensiyalarning shakllanishida pedagog faoliyati, interfaol metodlar, jamoaviy ishlar hamda oila va maktab hamkorligining o'рни ochib berilgan. Maqolada ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, buyuk mutafakkir va davlat arboblarning qarashlari asosida ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: tarbiyaviy kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, boshlang'ich ta'lim, kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy kompetensiya, bilish kompetensiyasi, ta'lim va tarbiya uyg'unligi.

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limda dars jarayonlarini standart va nostandart vaziyatlarda qo'llay olish kerak. Asosiy masala ham tarbiyaviy kompetensiyaga qaratilgan. Tarbiya so'zi ham keng qamrovli tushuncha bo'lib, uni boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantirishning bir qancha yo'llari va usullarini qo'llash kerak. **Tarbiya** - shaxsda yaxshi va u uchun zarur bo'ladigan xususiyatlarga ega bo'lishi maqsadida ko'riladigan chora tadbirlar jamlanmasi hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ta'lim-tarbiya berish jarayonida ularda turli xil kompetensiyalar shakllanib boradi. Masalan, kommunikativ, ijtimoiy va yana bir qancha kompetensiyalar shakllanadi.

Kompetensiya bu - (lotincha "compete" so'zidan olingan bo'lib "erishaman, muvofiqman, loyiqman" degan ma'nolarni anglatadi) -insonlar egallagan bilim, ko'nikmalarni kundalik hayotda qo'llay olishini bildiradi. Boshlang'ich sinflarda

kommunikativ kompetensiyani yozishga, gapirishga va tinglashga o'rgatish savod o'rgatish jarayonida amalga oshirish mumkin.

- Kommunikativ kompetensiya muloqotchanlikni shakllantirishda yetakchilik qiladi.
- Ijtimoiy kompetensiya boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy qobiliyatini shakllantirish va uni namoyish eta olishini ta'minlaydi.
- Jamoaviy muhit yaratilishi ham kompetensiyani yaratish mumkin.
- Bilish kompetensiyasini shakllantirish orqali ongida paydo bo'lgan tushunchani idrok qiladi va uni nima ekanligini anglab yetishga harakat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari dars jarayonlarini o'zlashtirib borishi ham ularda bilish kompetensiyasini shakllantirishga bboradi, chunki ular dars jarayonida yangi va o'zi uchun notanish tushunchalarga duch keladi. Pedagoglarning vazifasi notanish tushunchani tanitish va o'quvchi shu tushunchani ongida shakllantirishga olishi kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida so'z san'atini bevosita idrok etish qobiliyatining rivojlanishi asar syujetining o'ziga manzur jihatlarini aniqlash, qahramonlarning xatti-harakatlarini baholash, o'z xulosalarini umumlashtirib bayon qilish tarzidagi adabiy tahlil ko'nikmalarini egallay borishiga bog'liq. Pedagoglar darslarni tashkil etishda tur xildagi interfaol metodlardan foydalanishi va tarbiyaviy treninglarni tashkil etishi bu ham o'quvchilarda kompetensiyani shakllantiradi.

Tarbiyaviy kompetensiyalarni tashkil qilishdan asosiy maqsad, o'quvchilarda avvalo "men" obrazini shakllantirish ko'zda tutilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tarbiyaviy kompetensiya faoliyatli jarayon turlarini shakllanishiga olib keladi. Masalan, munosabatda bo'lish, bilish, o'quv, oddiy mehnat, tarbiyaviy va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiya faoliyatlari pedagog orqali o'quvchilarda shakllanadi. Darslarda ham tarbiyaga chorlovchi vaziyatlarni aks ettirishi kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilishga qiziqishi, nutqi, xotirasi, diqqati va tafakkuri shakllangan bo'lishi lozim, chunki olib borilayotgan jarayonlar o'quvchilarning ongiga sezilarli bo'ladi. Ta'lim va tarbiya uzviy bog'liq bo'lganidan keyin, tarbiyaviy kompetensiyalar ham ta'lim jarayonida shakllanib

borishi kerak. Ta'lim jarayonida tarbiyaviy kompetensiyaning ham o'rni beqiyos. *"Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yohalokat ,yo saodat-yo falokat masalasidir."* A.Avloniy.

Bu jumlarimizni ayniqsa pedagoglarimiz shior qilib olishgan. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilarimizning tarbiyasini shakllantirib, kelajak uchun ma'naviyatli insonlar yetishib chiqishi ko'zda tutilgan. Shu bilan bir qatorda muammoli vaziyatlarga ham olib kelishi mumkinligi jumalarda o'z aksini topgan. Albatta pedagoglarimiz darslarda ta'lim bilan tarbiyani uzviy bog'lagan holda yondashishlari kerak. Bu so'zlarga ham birinchi Prezidentimiz alohida urg'u berib o'tgan. Birinchi Prezidentimiz I.Karimov aytganlaridek: *"Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi -bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi."*

Bugungi kunda pedagoglar faqat ta'limga e'tibor berib, bilim bilan yuksaltirishga harakat qilishsa, ta'limda hech qanday yuksalish bo'lmaydi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda guruh bo'lib yondashish, ularni hamjihatlikka undash va birga harakat qilishi bizning yutug'imiz bo'lishi mumkin. Chunki, tarbiyaviy kompetensiyaning o'quvchilarda individualniy holda shakllantirib bo'lmaydi. Kompetensiya o'quvchilar o'rtasida o'zaro munosabatlarni, fikrlash doirasini kengayishini va ma'lum bir maqsad uchun birlashishini maqsad qilib olgan. O'quvchilar bilan birgalikda ishlash, ya'ni tadbirlarda ularni guruh qilish ham ularda ijtimoiy kompetensiyaning shakllantiradi.

O'quvchilarda shakllantiriladigan kompetensiyalar uch darajaga ajratiladi:

- tayanch kompetensiyalar;
- umumiy (predmetli) kompetensiyalar;
- xususiy kompetensiyalar.

O'quvchi shaxsining umumiy rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan kompetensiyalar tayanch kompetensiya, faqat o'quv fani orqali shakllantiriladigan kompetensiyalar xususiy kompetensiyalar deyiladi. Ma'lumki, umumiy o'rta ta'lim maktablarimiz ta'lim-tarbiya

jarayoni orqali o'quvchilarda tayanch kompetensiyalar, jumladan, kommunikativ, axborot bilan ishlay olish, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, umummadaniy, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish vazifasi yuklatilgan.[4] Tarbiyaviy kompetensiyaning yana bir muhim jihatlaridan biri bu-oilaviy hamkorlikni yo'lga qo'yish. Chunki, tarbiya jarayoni oila bilan olib borilishi kerak bo'lgan o'rni ham bor. Farzandining yuksak marra-larga erishishda oilaning turtkisi, madadi va ko'magi zarur bo'ladi. Faqatgina nazariy tarbiyadan chetlashib farzandining bo'sh vaqta tushunchasiga e'tibor berish kerak. Etikasi va estetikasiga e'tibor berib, uning ongini yuksaltirish uchun kutubxonalarga, muzeylarga olib borish zarur. Hatto bu jarayonni ta'limda ham qo'llash, ya'ni darslarni iloji boricha, sinfxonalaridan uzoqlashgan holda, mavzularga doir joylarda tashkillashtirish kerak.

“Ta'lim-tarbiya - bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo'q. Qanchalik murakkab bo'lmasin, maktab ta'limida poydevorni bugundan mustahkam qo'yishimiz kerak. Chunki, biz ko'p vaqt yo'qotganmiz. Agar kimda-kim maktab bu faqat Xalq ta'lim vazirligining ishi, deb o'ylasa mutlaqo yanglishadi. Maktab ta'limi sohasidagi islohotlar vazirlik va idoralar, tarmoq rahbarlari, barcha darajadagi hokimlar, ilmiy tashkilotlar, ziyolilar, keng jamoatchilikning vazifasi bo'lishi shart va zarur. Shundagina kutilgan natijaga erishish mumkin.” Sh.Mirziyoyev.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda tarbiyaviy kompetensiyalarni shakllantirish bugungi ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki aynan ushbu bosqichda o'quvchilarning shaxsiy fazilat-lari, ijtimoiy munosabatlari, axloqiy qarashlari va hayotiy pozitsiyasi shakllanadi. Tarbiyaviy kompetensiyalarni rivojlantirish ta'lim jarayonida faqat bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, o'quvchilarning ijtimoiy faolligi, mustaqil fikrlashi, jamoada ishlash ko'nikmalari va milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalanishini taqozo etadi. Pedagoglar dars jarayonida interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, guruhli va jamoaviy ishlardan samarali

foydalangan holda o'quvchilarda tarbiyaviy kompetensiyalarni izchil shakllantirishlari lozim. Shu bilan birga, oila va maktab hamkorligini mustahkamlash, o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, madaniy-ma'rifiy muhitni boyitish ham tarbiyaviy kompetensiyaning samaradorligini oshiradi. Demak, ta'lim va tarbiya uzviy bog'liq jarayon bo'lib, boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy kompetensiyalarni shakllantirish orqali kelajakda ma'naviy yetuk, ijtimoiy faol va mas'uliyatli fuqarolarni voyaga yetkazish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Avloniy A. **Turkiy guliston yoxud axloq.** – Toshkent: O'qituvchi, 2016.
2. Karimov I.A. **Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.** – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Mirziyoyev Sh.M. **Ta'lim va tarbiya – taraqqiyot poydevori.** – Toshkent: O'zbekiston, 2020.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. **Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari.** – Toshkent, 2017.
5. Qodirov A., To'xtaboyev S. **Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi.** – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
6. Yo'ldoshev J., Usmonov S. **Pedagogik texnologiyalar asoslari.** – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
7. Mavlonova R. **Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv.** – Toshkent, 2022.